

### XORAZM SHEVALARIDA FAOL QO‘LLANILADIGAN SON TARKIBLI FRAZEMALAR

**Jamalatdinova Laylo Ro‘ziboyevna,**

*Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti, Urganch, O‘zbekiston*

*E-mail: [jamolatdinovalaylo@gmail.com](mailto:jamolatdinovalaylo@gmail.com)*

***Annotatsiya.** O‘zbek tili frazeologik boyligi bilan ajralib turadi. Maqolada Xorazm shevalarida son komponentli frazemalar o‘rganiladi. Ularning semantik guruhleri, stilistik vazifalari va shakllanish xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot Xorazm dialektining leksik-frazeologik boyligini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Xorazm shevalari, son tarkibli frazemalar, frazeologiya, dialektologiya, semantik guruhlar.*

***Аннотация.** Узбекский язык выделяется своим фразеологическим богатством. В статье исследуются фраземы с числовыми компонентами в хорезмских говорах. Анализируются их семантические группы, стилистические функции и особенности формирования. Исследование способствует более глубокому изучению лексико-фразеологического богатства хорезмского диалекта.*

***Ключевые слова:** Хорезмский говори, фраземы с числовыми компонентами, фразеология, диалектология, семантические группы.*

***Annotation.** Uzbek language stands out with its phraseological richness. The article examines numerical component phraseological units in Khorezm dialects. Their semantic groups, stylistic functions, and formation features are analyzed. The research contributes to a deeper study of the lexical-phraseological wealth of the Khorezm dialect.*

***Key words:** Khorezm dialects, numerical phraseological units, phraseology, dialectology, semantic groups.*

#### **KIRISH**

Frazemalar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatleri, mentaliteti va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Frazemalar ko‘pincha obrazli va ko‘chma ma‘noga ega bo‘lib, nutqning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbek tilshunosligida frazemalar turli jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa-da, hududiy shevalardagi frazemalar, xususan son komponentli frazemalar yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, Xorazm shevalarida son tarkibli frazemalar xalq nutqida keng qo‘llanilib, ular o‘ziga xos semantik va stilistik xususiyatlarga ega.

Xorazm shevalari o‘zbek tilining qadimiy va boy dialektlaridan biri bo‘lib, unda ko‘plab frazemalarni saqlanib qolgan. Bu frazemalarning bir qismi son komponenti

ishtirokida shakllangan bo‘lib, ular turli semantik ma‘nolarni ifodalaydi. Tadqiqotchilar Xorazm shevalarining leksik va frazeologik boyligini o‘rganishda ularning xalq og‘zaki nutqi bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydilar.

Frazeologiya tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda tildagi barqaror iboralar o‘rganiladi. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya masalalari Sh. Rahmatullayev, A. Mamatov, B. Yo‘ldoshev, Sh. Shomaqsudov kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Frazemalar tarkibida turli leksik komponentlar qatnashishi mumkin. Ulardan biri son komponentidir. Son ishtirokidagi frazemalar ko‘pincha quyidagi semantik vazifalarni bajaradi: miqdorni umumlashtirib ifodalash, harakatning kuchaygan darajasini ko‘rsatish, mubolag‘a ma‘nosini berish, xalq tajribasi asosidagi nasihat yoki hikmatni ifodalash.

Bir qator olimlar songa quyidagicha ta’rif beradilar: “Sonlar ma‘nosiga ko‘ra sanoq, tartib, jamlovchi, dona, taqsim va chama sonlarga bo‘linadi. Sonlar predmetlarning aniq miqdoriy belgilarini bildiradi. Ana shu xususiyati bilan miqdor bildiruvchi so‘zlardan farq qiladi. Masalan: Magazindan *ko‘p* kitob oldim/Magazindan *o‘nta* kitob oldim<sup>1</sup>. Sonlar frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida qatnashganda, o‘zining asosiy funksiyalarini bajarishdan to‘xtaydi va abstraksiyalashuv jarayoni natijasida juda kichik yoki nihoyatda katta miqdorni ifodalashga xizmat qiladi yoki umuman son qiymatiga ega bo‘lmaydi<sup>2</sup>. Ko‘plab frazeologik birliklarda sonlar aniq miqdorni emas, balki ramziy yoki umumiy ma‘noni bildiradi. Masalan, turkiy xalqlarda yetti, qirq, yuz kabi sonlar ko‘pincha ko‘plab miqdorni ifodalovchi ramziy birlik sifatida qo‘llanadi.

Ba‘zan ibora bilan maqol duch kelib qolishi mumkin. Masalan, “Besh panjasini og‘ziga tiqmoq”. Bu kabi misollarning qiymati shundaki, ular ibora bilan maqolning bir xil hodisa emas, balki parallel hodisalar ekanini yaxshi namoyish qiladi. Ularning asosiy farqlaridan biri, maqollar o‘z grammatik qurilishi jihatidan doim gapga teng bo‘ladi, iboralarda esa bu jihatdan bir xillik yo‘q, ular birikmaga teng ham, gapga teng ham bo‘la oladi<sup>3</sup>. Bu maqoldagi “besh” soni sanoq yoki miqdor ma‘nosida emas, balki butunlik oraqli ochko‘zlik hamda haddan oshishga ishora qiladi va bu frazemani Xorazim shevalarida “*Beš barmaqini ayzina diqti*” shaklida uchratishimiz mumkin.

<sup>1</sup> Nurmonov, A., Mahmudov, N., Sobirov, A., & Yusupova, Sh. (2013). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Toshkent: Ilm ziyo, 320-327.

<sup>2</sup> Krasnyx, V. V. (2001). *Til, ong, muloqot: San‘at maqolalari to‘plami*. Moskva: MAKS Press.

<sup>3</sup> Rahmatullayev, Sh. (1970). *Nutqimiz ko‘rki*. Toshkent: Fan.

Xorazm hududi tarixan turli madaniyatlar kesishgan hudud bo'lgani sababli bu yerda shakllangan til birliklari ham boy va rang-barangdir. Xorazm shevalaridagi frazeologik birliklar xalqning kundalik turmushi, mehnati, urf-odatlarini hamda ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi.

Son komponentli frazemalar ham ana shu hayotiy tajriba asosida shakllangan. Ularning ko'pchiligi xalq og'zaki nutqida, maqol va matallarda, rivoyatlarda hamda kundalik muloqotda faol ishlatiladi.

Quyida Xorazm shevalarida faol qo'llaniladigan ayrim son tarkibli frazemalar keltiriladi.

“Bir” soni qatnashgan frazemalar: *“Biri alip, biri qojar”* – maqtash, *“Bir qulaqinnan girip, ikkinchisinnan c'iqadi”* – gapga kirmaydi ma'nosida, *“Bir-ikki ayiz”* – oz-oz, ozgina degan ma'noda, *“Bir ti:n”* – hech narsaga arzimaydi, ma'nosida, *“Dili bir qulač”* – ko'p gap qaytaradigan, betgachopar odam ma'nosida, *“Ič ayriqäm bir nešä”* – bahona topuvchi insonlarga nisbatan ishlatiladi, *“Kindiki bir”* – xarakteri bir xil, bir-biriga yaqin, doimo birga yuradigan ikki odamga nisbatan ishlatiladi.

“Ikki” soni ishtirokidagi frazemalar: *“Ikki ajaqinñ bir ädikä diqdñ”* – shoshib qoldi, *“Ikki bükilip”* – egilish, ko'chma ma'noda laganbardorlik qilish, *“Ikki dünjadam”* – hech qachon, *“Ikki doyip bir qayan”* – kimnidir o'ziga yaqin tutmoq, *“Ikki gäppini birindä”* – har aytayotgan gapining orasida bir narsani qistirish, *“Källäsi ikkimäs”* – aqli joyida, o'ylamasdan ish qilmaydigan odamga nisbatan ishlatiladi.

“To'rt” soni qatnashgan frazemalar *“Dört göz boldñ”* va *“Gözzi dört boldñ”* – intiqlik bilan kutish ma'nosida.

“Besh” soni tarkibli frazemalar: *“Beš barmaqinñ ayzina diqtñ”* – birdaniga hamma narsani qilmoqchi bo'ldi manosida qo'llaniladigan frazemalar. *“Beš ayeni bir jerä gäldi”* – jam bo'lmoq, ahil bo'lmoq kabi ma'nolarda qo'llaniladi.

“Yetti” soni ishtirokidagi frazemalar: *“Jeddi bükilip”* – hurmat qilish, laganbardorlik qilish ma'nosida. *“Jeddi jašdan jetmiš jašačä”* – katta-yu kichik, hamma kabi ma'nolarni ifodalaydi. *“Jeddi uxlap düšinä girmädi”* – mutlaqo o'ylamagan, kutilmagan ishlar sodir bo'lishi manosida.

“Qirq” soni ishtirokidagi frazemalar: *“Qırq ādam bñr jana, qinñyñr ādam bñr jana”* – qirq odam bir tarafda qing'ir, o'jar odam bir tarafda ma'nosida ishlatiladi. Shu bilan birga *“Gun jirmä dört sät”* – har doim, kunbo'yi ma'nolarini ifodalovchi frazemalar ham mavjud.

Xorazm shevalaridagi son tarkibli frazemalarni semantik jihatdan bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Masalan: Mubolag'a ma'nosini bildiruvchi frazemalar-

bunday frazemalarda sonlar aniq miqdorni emas, balki kuchaytirish ma’nosini bildiradi. Qarama-qarshilikni ifodalovchi frazemalar- bu turdagi frazemalarda sonlar vaziyatning murakkabligini ko’rsatadi. Nasihat mazmunidagi frazemalar- bu frazemalar xalq tajribasi va donishmandligini ifodalaydi.

Son komponentli frazemalar nutqda quyidagi stilistik vazifalarni bajaradi: Nutqning obrazlilikini oshiradi, mazmunni kuchaytiradi, xalqona ruhni ifodalaydi va nutqni qisqa va ta’sirchan qiladi. Xorazm shevalarida bunday frazemalar ko‘pincha kundalik suhbatlarda, xalq og‘zaki ijodida hamda maqollarda uchraydi.

### **XULOSA**

Xorazm shevalari o‘zbek tilining boy frazeologik qatlamini tashkil etadi. Bu hududda son komponentli frazemalar xalq nutqida faol qo‘llanilib, ular turli semantik va stilistik vazifalarni bajaradi. Son tarkibli frazemalar ko‘pincha ramziy ma’noga ega bo‘lib, ular xalqning hayotiy tajribasi, urf-odatlarini hamda dunyoqarashini aks ettiradi. Shu sababli Xorazm shevalaridagi bunday frazemalarni o‘rganish o‘zbek tilining dialektologik va frazeologik tizimini chuqurroq anglashga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. Toshkent, Fan, 1966.
2. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. Toshkent, 1999.
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani (O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati). Toshkent, 2001.
4. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi asoslari. Toshkent, 2007. Xorazm shevalarining leksik-semantik xususiyatlari haqida ilmiy tadqiqotlar.